Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhruxh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmamaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

WEB DASTURLASH FANINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich

Andijon davlat universiteti
"Kompyuter Injineriingi" kafedra mudiri, PhD, dotsent

Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li

Andijon davlat universiteti,
"Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti" 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada web dasturlash fanining ahamiyati hamda uning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Web dasturlashning ta'lim jarayonidagi o'rni, loyiha asosida o'qitish metodikasi va zamonaviy web texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, fanni samarali o'qitishni ta'minlashda amaliy yondashuvlar va innovatsion o'quv uslublaridan foydalanish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: web dasturlash, loyiha asosida o'qitish, Project Based Learning, web texnologiyalar, ta'lim metodikasi, raqamli kompetensiya, interaktiv o'quv platformalari, zamonaviy texnologiyalar, amaliy ko'nikmalar, integratsiya, innovatsion ta'lim, ta'lim jarayoni.

Abstract: This article examines the importance of web programming and the main trends in its development. The role of web programming in the educational process, the methodology of project-based learning, and the impact of modern web technologies on the quality of education are analyzed. In addition, the necessity of applying practical approaches and innovative teaching methods to ensure effective mastery of the subject is scientifically justified.

Key words: web programming, project-based learning, Project Based Learning, web technologies, educational methodology, digital competence, interactive learning platforms, modern technologies, practical skills, integration, innovative education, educational process.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение веб-программирования и основные тенденции его развития. Проанализированы роль веб-программирования в образовательном процессе, методика обучения на основе проектов (Project Based Learning), а также влияние современных веб-технологий на качество обучения. Кроме того, научно обоснована необходимость использования практико-ориентированных подходов и инновационных методов преподавания для эффективного освоения дисциплины.

Ключевые слова: веб-программирование, обучение на основе проектов, Project Based Learning, веб-технологии, методика преподавания, цифровая компетенция, интерактивные образовательные платформы, современные технологии, практические навыки, интеграция, инновационное обучение, образовательный процесс.

KIRISH

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida ta'lim, tibbiyot, sanoat, xizmat ko'rsatish va hatto kundalik turmushda ham axborot tizimlari hamda web texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Shu boisdan web dasturlash fanini o'rganish nafaqat IT sohasi mutaxassislari, balki har bir zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biriga aylanmoqda.

Web dasturlash – bu internet muhitida ishlaydigan dasturiy mahsulotlar, saytlar va platformalarni yaratish jarayonidir. U HTML, CSS, JavaScript, PHP, Python, MySQL kabi texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi. Mazkur fan yordamida foydalanuvchi bilan interaktiv muloqot qiluvchi, ma'lumot almashuvchi va turli xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlar ishlab chiqiladi. Bugungi kunda davlat boshqaruvi, ta'lim, biznes, elektron savdo, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarda web texnologiyalar asosiy axborot infratuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida IT sohasini rivojlantirish, malakali dasturchilarni tayyorlash hamda web texnologiyalarni keng joriy etish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, web dasturlash fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, uni amaliy loyihalar bilan boyitish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



Web dasturlashning rivojlanish tendensiyalari zamonaviy ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. So'nggi yillarda frontend va backend texnologiyalarining uyg'unlashuvi, full stack dasturchilarga bo'lgan ehtiyojning ortishi, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash hamda responsive design kabi yondashuvlar ushbu sohaning yangi rivoj yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Shu bilan birga, web dasturlash fanini o'qitishda loyiha asosida o'qitish (Project Based Learning), aralash ta'lim (Blended Learning) va masofaviy o'qitish (E-learning) kabi zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish tobora keng ommalashib bormoqda.

Shu boisdan ushbu maqolada web dasturlash fanining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning ahamiyati, rivojlanish tendensiyalari hamda uni o'qitishda samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvlar web dasturlashni o'qitish jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy web dasturlash fanining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli ta'lim strategiyasi – 2030" hujjatida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, web texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish hamda zamonaviy IT mutaxassislarini tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategiya web dasturlash fanining ta'lim tizimidagi dolzarbligini normativ-huquqiy asosda mustahkamlaydi.

Web dasturlashning nazariy va amaliy asoslari masalasida Karimov tomonidan 2021-yilda chop etilgan "Web dasturlash asoslari" asari muhim manba hisoblanadi. Unda HTML, CSS, JavaScript kabi asosiy texnologiyalar, web sahifalarning tuzilishi va ishlash mexanizmlari bosqichma-bosqich yoritilgan. Shuningdek, Nurmatov va Sattorov tomonidan 2020-yilda nashr etilgan "Axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari" kitobida web dasturlashning umumiy dasturlash muhitidagi o'rni, uni boshqa IT yo'nalishlari bilan integratsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Qodirov tomonidan 2022-yilda chop etilgan tadqiqotlarda esa zamonaviy web texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari, "frontend" va "backend" yondashuvlari hamda ularning ta'lim jarayoniga ta'siri keng yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda web dasturlashni o'qitish metodikasi va amaliy jihatlari muhim o'rin tutadi. Thomas va Roy tomonidan 2019-yilda yozilgan qo'llanmada web dizayn va dasturlashni integratsiyalashgan holda o'rganish yondashuvi asoslab berilgan. W3C va Mozilla Developer Network tomonidan 2024-yilda taqdim etilgan texnik hujjatlar web standartlar, xavfsizlik va moslashuvchan dizayn masalalarini ochib beradi. Qodirova tomonidan 2023-yilda olib borilgan tadqiqotlarda loyiha asosida o'qitish metodikasining web dasturlash fanida qo'llanishi talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanini isbotlangan. UNESCO tomonidan 2023-yilda ishlab chiqilgan pedagoglar uchun raqamli kompetensiyalar modeli hamda Stack Overflow Developer Survey 2024 natijalari web dasturlashning global tendensiyalari va mehnat bozorida ahamiyatini yaqqol ko'rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Web dasturlash fanining ahamiyati va uning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish jarayonida bir qator ilmiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Asosiy metodlar sifatida tahliliy, taqqoslama, tizimli yondashuv hamda empirik kuzatuv usullari qo'llanildi.

Avvalo, tahliliy metod yordamida web dasturlashning ta'lim tizimidagi o'rni, uning boshqa dasturlash yo'nalishlaridan farqli jihatlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidagi roli o'rganildi. Shuningdek, web dasturlashning jamiyatdagi amaliy ahamiyatini yorituvchi manbalar, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, W3C) hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi IT sohasini rivojlantirishga oid davlat dasturlari tahlil qilindi.

Taqqoslama metodi orqali web dasturlashning turli bosqichlardagi rivojlanish tendensiyalari, dastlabki statik sahifalardan tortib bugungi kundagi dinamik, interaktiv va sun'iy intellekt asosidagi web tizimlargacha bo'lgan jarayon solishtirildi. Bu orqali texnologik taraqqiyotning ta'lim va ishlab chiqarish sohalariga ko'rsatgan ta'siri aniqlab chiqildi.

Tizimli yondashuv metodi esa web dasturlashni yagona o'quv tizimi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Unda o'qituvchi, o'quvchi, o'quv muhiti, dasturlash vositalari hamda amaliy loyihalar o'zaro bog'liq komponentlar sifatida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali web dasturlashni o'qitishda loyiha asosida yondashuvning (Project Based Learning) afzalliklari aniqlanib, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatildi.

Bundan tashqari, empirik kuzatuv metodi yordamida bir nechta oliy ta'lim muassasalarida web dasturlash fanini o'qitish tajribalari o'rganildi. Jumladan, Andijon davlat universiteti hamda ayrim xorijiy onlayn ta'lim platformalarida (Coursera, FreeCodeCamp, Udemy) qo'llanilayotgan o'quv metodlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini shakllantirishda statistik ma'lumotlar tahlili, internet manbalarini o'rganish hamda amaliy loyihalar tahlili asosiy manba sifatida xizmat qildi. Shu orqali web dasturlash fanining ta'lim tizimidagi dolzarbligi, zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari yuzasidan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, web dasturlash bugungi raqamli jamiyatda eng muhim va istiqbolli sohalaridan biri sifatida shakllanmoqda. Web texnologiyalar nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki ta'lim, biznes, davlat boshqaruvi va kommunikatsiya tizimlarining asosi bo'lib qolmoqda.

O'rganish jarayonida aniqlanishicha, web dasturlash fanining ta'limdagi ahamiyati quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi:

1. **Amaliy yo'naltirilganlik.** Web dasturlash o'quvchilarni real loyihalar asosida ishlashga o'rgatadi. Bu jarayonda talaba nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydi. Natijada bitiruvchilar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislar sifatida shakllanadi.
2. **Ijodkorlik va muammoli fikrlashni rivojlantirish.** Web dasturlash fani talabalarda mantiqiy va tizimli fikrlashni, muammolarga ijodiy yondashishni va ularni samarali hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3. **Integratsion xususiyat.** Web dasturlash boshqa fanlar – algoritmlash, ma'lumotlar bazasi, dizayn, axborot xavfsizligi va sun'iy intellekt yo'nalishlari bilan uzviy bog'langan. Shu sababli u IT sohasining markaziy komponenti sifatida qaraladi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda web dasturlashning rivojlanish tendensiyalari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

1. **Frontend va backend texnologiyalarining uyg'unlashuvi.** Zamonaviy dasturchilar ko'p hollarda full stack yondashuvidan foydalanib, bir vaqtning o'zida foydalanuvchi interfeysini hamda server qismini ishlab chiqmoqda.
2. **JavaScript ekotizimining kengayishi.** React, Vue.js, Angular kabi freymvorklarning rivojlanishi web ilovalarni yaratish jarayonini tezlashtirib, ularning moslashuvchanligi va interaktivligini oshirdi.
3. **Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning kirib kelishi.** Sun'iy intellekt yordamida veb-saytlarni optimallashtirish, foydalanuvchi tajribasini tahlil qilish hamda shaxsiylashtirilgan kontent yaratish imkoniyatlari paydo bo'ldi.
4. **Bulutli texnologiyalar va mikroxizmatlar.** AWS, Google Cloud, Azure kabi platformalar yordamida veb-ilovalar yuqori darajadagi barqarorlik, xavfsizlik va masshtablanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.
5. **Moslashuvchan (responsive) dizaynning ustuvorligi.** Mobil qurilmalardan foydalanuvchilar sonining ortishi web dasturchilarni barcha ekran o'lchamlariga mos interfeyslar yaratishga faol e'tibor qaratishga undamoqda.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida web dasturlash fanini o'qitishda hali ham nazariy yo'nalish ustunlik qiladi, amaliy loyiha asosidagi yondashuvlar esa yetarli darajada keng joriy etilmagan. Shu bilan birga, ayrim ta'lim muassasalarida Project Based Learning metodini joriy etish bo'yicha dastlabki ijobiy tajribalar mavjud bo'lib, bu talabalarning fan bo'yicha qiziqishini hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirgan.

Tahliliy natijalar shuni ko'rsatdiki, web dasturlashni o'qitishda amaliy loyihalarga asoslangan yondashuv, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim jarayonida onlayn platformalardan (GitHub, CodePen, Replit va boshqalar) foydalanish o'quv samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini kuchaytirish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va mahalliy sharoitlarga integratsiya qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil web dasturlash fanining nafaqat texnik, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Mazkur fan zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, yoshlarning ijodkorlik salohiyatini, axborot madaniyatini va raqamli tafakkurini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, web dasturlash bugungi kunda nafaqat IT sohasi mutaxassislari, balki turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq ushbu fan o'qitilishida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular takomillashtirishni talab etadi.

Avvalo, ta'lim jarayonida nazariy bilimlarning ustunligi amaliy ko'nikmalarning yetarlicha shakllanmasligiga olib kelmoqda. Aksariyat hollarda talabalar kod yozish, loyiha ishlab chiqish yoki veb-ilovalarni amaliy sinovdan o'tkazish tajribasiga ega bo'lmaydi. Natijada bitiruvchilar mehnat bozorining amaliy talablariga to'liq javob bera olmaydi. Shu sababli o'quv jarayonida Project Based Learning (PBL), ya'ni loyiha asosida o'qitish metodikasini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim resurslarining yetarli emasligi ham muhim muammolardan biridir. Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida web dasturlash bo'yicha zamonaviy laboratoriyalar, test muhitlari yoki onlayn o'quv platformalari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Shuningdek, o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlarning soni cheklangan. Bu holat fan bo'yicha ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Boshqa tomondan, jahon miqyosida web dasturlashning rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'lib, har yili yangi texnologiyalar, dasturlash tillari va freymvorklar paydo bo'lmoqda. Xususan, JavaScript ekotizimining kengayishi, TypeScript, Next.js va boshqa yangi vositalarning joriy etilishi o'quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab borishni talab etadi. Bu esa o'qituvchilardan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni va yangiliklarni o'zlashtirib borishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, mahalliy sharoitlarda ingliz tilidagi texnik adabiyotlardan foydalanishdagi muammolar ham mavjud. Talabalar ko'pincha o'zbek yoki rus tillaridagi manbalarga tayanadi, biroq ularning aksariyati eskirgan yoki cheklangan mavzularni qamrab oladi. Shu boisdan o'zbek tilida zamonaviy web dasturlash bo'yicha sifatli darsliklar, video kurslar va interaktiv o'quv platformalarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat web dasturlash fanini boshqa sohalar bilan integratsiya qilish zarurati bilan bog'liq. Hozirgi kunda axborot xavfsizligi, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va dizayn kabi fanlar bilan uzviy aloqadorlikni ta'minlash talabalarga keng qamrovli bilim berishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat dasturchilarni, balki murakkab va kompleks yechimlar ishlab chiqishga qodir mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Shuningdek, web dasturlashni o'qitishda motivatsiya masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Amaliy loyihalar, musobaqalar (hackathon), onlayn tanlovlar hamda jamoaviy dasturlash jarayonlari orqali talabalarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, jamoada ishlash va muammolarni birgalikda hal etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, munozara natijalari web dasturlash fanini samarali o'qitish uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi:

- o'quv jarayoniga loyiha asosida o'qitish metodikasini keng joriy etish;
- o'qituvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish;
- o'zbek tilidagi zamonaviy va sifatli o'quv resurslarini yaratish;
- ta'lim jarayonida real loyihalar va startaplar asosida mashg'ulotlar tashkil etish;
- xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish.

Bunday yondashuv web dasturlash fanini nafaqat texnik jihatdan samarali o'qitish, balki talabalarda ijodiy, innovatsion va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini yaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, web dasturlash bugungi raqamli jamiyatda eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biridir. U nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Web dasturlash fanining ta'lim tizimidagi o'rni yil sayin ortib borayotgani uning zamonaviy iqtisodiyot, kommunikatsiya va ta'lim sohalaridagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, web dasturlashni o'qitishda Project Based Learning (loyiha asosida o'qitish) metodikasini keng joriy etish o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligini oshirishda eng samarali yondashuvlardan biridir. Ushbu metodika orqali talaba real loyihalar ustida ishlashni o'rganadi, jamoaviy muhitda faoliyat yuritish ko'nikmalarini egallaydi va o'z kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Biroq ushbu yo'nalishda hamon yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Jumladan, o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish, o'zbek tilidagi sifatli ta'lim resurslarini kengaytirish, laboratoriyalar va amaliy platformalarni takomillashtirish zarur. Shuningdek, web dasturlash fanini axborot xavfsizligi, dizayn, ma'lumotlar bazasi va sun'iy intellekt yo'nalishlari bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.



Kelgusida web dasturlash fanini o'qitish quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir:

- ta'lim jarayonida amaliy loyihalar ulushini oshirish;
- onlayn o'quv platformalarini joriy etish va ularni doimiy takomillashtirib borish;
- xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish;
- talabalarni startaplar, tanlovlar va innovatsion loyihalarda faol ishtirok etishga rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, web dasturlash fanini o'qitish samaradorligini oshirish nafaqat ta'lim sifati, balki mamlakatning raqamli taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur fan bo'yicha ilg'or yondashuvlarni joriy etish, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va mahalliy sharoitlarga mos innovatsion yechimlar ishlab chiqish O'zbekistonning axborot texnologiyalari sohasidagi raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (2024). Raqamli ta'lim strategiyasi – 2030. Toshkent.
2. Karimov, A. (2021). Web dasturlash asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Nurmatov, B., & Sattorov, M. (2020). Axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari. Toshkent: TATU nashriyoti.
4. Qodirov, D. (2022). Zamonaviy web texnologiyalar va ularning rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: Innovatsion ta'lim markazi.
5. Thomas, J., & Roy, P. (2019). Learning Web Design: A Beginner's Guide to HTML, CSS, JavaScript, and Web Graphics. O'Reilly Media.
6. W3C (World Wide Web Consortium). (2024). Web Standards and Best Practices. <https://www.w3.org>
7. Mozilla Developer Network (MDN). (2024). Web Development Documentation. <https://developer.mozilla.org>
8. Qodirova, M. (2023). "Loyiha asosida o'qitish metodikasining web dasturlashda qo'llanishi." Oliy ta'limda innovatsiyalar jurnali, №4, 55–61-betlar.
9. UNESCO. (2023). ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO Publishing.
10. Stack Overflow Developer Survey (2024). Global trends in programming and web development. <https://survey.stackoverflow.com>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.